

GIPERTONIYA BELGILARI VA DAVOLASH METODIKASI

*Isroilov Islom Tirkash o'g'li**Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti**Pediatrica fakulteti talabasi**Xudaynazarova Nozima Komiljon qizi**Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti**Pediatrica fakulteti talabasi**Rejamurodova Laylo Anvar qizi**Samarqand davlat tibbiyot universiteti**davolash fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada arterial gipertoniya kasalligining kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, tashxislash va davolash usullari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi gipertoniyaning inson salomatligiga ta'sirini tahlil qilish va uning oldini olish yo'llarini ko'rsatishdan iborat. Maqolada ilmiy adabiyotlar tahlili usulidan foydalanilgan. Olingan natijalar gipertoniyani erta aniqlash va asoratlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Arterial gipertoniya, qon bosimi, yurak-qon tomir kasalliklari, tashxis, davolash, profilaktika.

Organizmida normal fiziologik bosim 120/80 hisoblanib, bu miqdor maksimal va minimal bosimlar hisoblanadi. Gipertoniya esa bu bosim oshib ketadi. Bu jarayonda qon tomirlar spazm holatda bo'lib ulardagi bosim oshib ketadi. Ko'pincha yoshi katta odamlarda ko'p kuzatiladigan va juda keng tarqalgan xastalik hisoblanmoqda. Bunda bemorda gipertoniya belgilari sifatida quyidagilarni aytish mumkin.

Ko'krak qafasida og'riq hissi

Bosh aylanishi

Yurak notekis urishi

Shish (oyoq, qovoq, buyinda va boshqa sohalarda har xil shishlar)

Boshning qattiq yoki yengil og'riqi

Ko'rish bilan bog'liq o'zgarishlar. Ya'ni xiralashuv, ko'z olmasida og'riq va ba'zan ko'rishning yuqolib qolishi bilan kechadi

Burun qonashi (burun tomirlari yuqori bosimni kutara olmasligi sababli)

Chap qo'l, oyoq yoki o'ng qo'l, oyoq sohasida bir tomonlama kuchsizlik, quvvatsizlik hissi

Nafas olishning qiyinlashuvi (hansirash, xirillashni paydo qiladi)

Ong xiralashuvi (ongning buzilishi)

Agar bemorimizda shu belgilar bo'lsa qon bosimi o'lchanib kerakli chora tadbirlar olib boriladi. Chora tadbirlarni bosimni tushirishga qaratishimiz kerak bo'ladi.

Davolash: Agar qon bosimi 180/200 atrofida buladigan bo'lsa dastlabki 2 soat ichida 25% ga tushirishimiz kerak bo'ladi.

Buning uchun birinchi yordam dorilari sifatida quyidagilardan foydalanamiz:

Til ostiga; Nifidipin, Kaptopril

Diuretiklardan (siydik jaydovchilar);

Furosemid, torasemid

Markaziy asab sistemasiga ta'sir qiluvchi antigipertenzin vositasi: Klonidin, Metildopa, Guanfatsin, Moksonidin

Miotrop spazmolitik: Nitroglitserin, Klevhidipin

Ba'zan tez yordamda MgSO₄ dan foydalanishadi.

Gipertoniyaning qon tomir sistemasi kasalliklariga bog'liqligi;

Gipertoniya — qon tomir kasalliklarining ham sababi, ham oqibati bo'lishi mumkin. Qon tomir kasalliklarida tomir devorining torayishi va elastikligining pasayishi natijasida arterial gipertoniya rivojlanishi mumkin. Tomir torayadi → qarshilik oshadi → arterial bosim ko'tariladi → gipertoniya

Ateroskleroz — bu arteriya devorlarida xolesterin, yog' va kalsiydan tashkil topgan blyashkalar to'planishi. Blyashkalar tomir ichki bo'shlig'ini toraytiradi. Tomir elastikligini yo'qotadi. Qon oqishiga qarshilik oshadi. Natijada arterial qon bosimi ko'tariladi. Ateroskleroz gipertoniyaning ham sababi, ham asorati bo'lishi mumkin.

Periferik arteriyalar kasalligi — asosan oyoqlardagi arteriyalarning torayishi yoki yopilib qolishi bilan kechadigan kasallik. Natijada gipertoniyani keltirib chiqaradi.

Belgilari:

Yurishda oyoq og'rig'i, oyoq sovuqligi, teri rangining oqarishi yoki ko'karishi.

Buyrak qon tomirlari kasalliklari (renovaskulyar gipertoniya)— buyrak arteriyalarining torayishi natijasida rivojlanadigan gipertoniya turi.

Mexanizm: Buyrakka qon kam boradi. Buyrak buni "bosim past" deb qabul qiladi. Renin–angiotenzin–aldosteron tizimi faollashadi. Tomirlar torayadi, suyuqlik ushlanadi. Qon bosimi ko'tariladi.

Gipertoniya bo'lmashligi uchun: To'g'ri ovqatlanish, tuzni kamaytirish, jismoniy faollik, tana vaznini nazorat qilish, zararli odatlardan voz kechish, stressni kamaytirish, yetarli uyqu, qon bosimini muntazam nazorat qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Ichki kasalliklar / O'zbekiston tibbiyot oliy o'quv yurtlari uchun darslik. — Toshkent.
2. Kardiologiya / O'zR Sog'liqni saqlash vazirligi tavsiya etgan darslik. — Toshkent.

3. Patologik fiziologiya / Tibbiyot institutlari uchun o‘quv qo‘llanma. — Toshkent.
4. Normal fiziologiya / Tibbiyot oliygohlari uchun darslik. — Toshkent.
5. Ichki kasalliklar propedevtikasi / O‘quv qo‘llanma. — Toshkent.

